

ISSUES OF LANGUAGE CULTURE IN THE SPEECH OF MODERN UZBEK YOUTH

Eshpulatova.F.F

Student of Termez State Pedagogical Institute

Email: jujuyevadudush@gmail.com

Abstract: This article analyzes the prevalent issues observed in the speech culture of the youth in our country. Specifically, it examines the widespread use of vulgarisms and barbarisms in speech, as well as the integration of foreign loanwords with the norms of the literary language. The negative impact of such processes on youth speech and their social consequences are highlighted. Furthermore, the article analyzes the penetration of spelling errors and abbreviated forms of writing—common in modern social networks—into the culture of speech. The paper offers reflections on effective measures aimed at preventing mass illiteracy and underscores the advantages and social significance of the literary speech style.

Keywords: Speech culture, barbarism, vulgarism, mass illiteracy, language norms, linguistic literacy, colloquial style, pronunciation and spelling.

Nutq ma'daniyati faqat so'zlash odobi emas, balki shaxsning, millat tilining madaniy darajasi va inson ichki ma'naviy olamining ko'zgusidir. Har bir millatning ma'naviy qiyofasi, eng avvalo, uning tili va nutqi orqali namoyon bo'ladi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixi, qadriyatlari va dunyoqarashining aksidir. Shu bois, nutq madaniyatining yoshlar hayotidagi o'rni beqiyosdir.

Shuningdek, har bir shaxs o'z muloqotida o'zi uchun qulay va to'g'ri deb o'ylagan nutq me'yorlaridan foydalanadi, bu o'sha insonning til madaniyati darajasini, ma'naviy-madaniy saviyasini, tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy mavqeini o'zida aks ettiradi. Bu borada rus pedagog olimi Lev S. Vigotskiy shunday deydi: "Til – tafakkurning vositasi va shaklidir". O'zbek tilshunosi Sh.Rahmatullayev esa o'zining tilshunoslikka oid maqolalarida: "Adabiy til me'yorlariga amal qilishni shaxsning madaniyatli va savodli inson sifatidagi belgisi", - deb izohlaydi.

Ammo, afsuski, bugungi globallashuv sharoitida yoshlar nutqida adabiy til me'yorlaridan chetlashish, imloviy savodsizlik kabi salbiy holatlar ko'zga tashlanmoqda. Bunday muammolar esa nutq madaniyatini chuqurroq tahlil qilishni taqozo etadi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar yoshlarga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq ularning salbiy jihati ham yo'q emas. Ya'nikim, hozirgi zamonaviy tarmoqlararo muloqotda qisqartma so'zlar, imloviy xatolar bilan yozish va har bir jumlaning grammatikaga zid tarzda ifodalash, turli uslubiy xatoliklarga yo'l qo'yish, suhbat jarayonida muloqotga turli xil adabiy nutq me'yorlarini buzuvchi vositalarni qo'shish odat tusiga aylanmoqda. Bunday xatolar sekinlik bilan yoshlar ongiga singib, keyinchalik rasmiy muloqot va yozishmalarda ham o'z aksini topadi. Bu esa ommaviy savodsizlikka yo'l ochishi mumkin.

Yoshlar o'rtasida kundalik muloqotda parazit so'zlar, jargon, argon, vulgarizm va varvarizmlarning ko'plab qo'llanilishi kuzatiladi. Bu holat, bir qarashda oddiydek tuyulsa-da, aslida muloqot sifati va shaxs qiyofasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu adabiy til me'yorlarini buzuvchi vositalar fikrning ravonligini yo'qotib, suhbatni bo'sh va mazmunsiz ko'rsatadi, nutqning go'zalligini buzib, adabiy tilning qadrsizlanishiga va asta-sekin yo'qolishiga sabab bo'ladi. Natijada, yosh avlod orasida adabiy nutqqa beparvolik kuchayadi, muloqot madaniyatiga e'tibor susayadi.

Ko'plab insonlar nutqida ko'p ishlatadigan, ammo nutqni "quruq" va saviyasiz qiladigan omillar:

Vulgarizm — bu adabiy til me'yorlariga xos bo'lmagan, qo'pol, odobsiz, haqoratli mazmundagi qarg'ish so'z, so'z va iboralardir. Ular ko'pincha muloqotda insonning hissiy holatini, xususan, g'azab, nafrat, kinoya yoki xo'rliqini ifodalash uchun ishlatiladi. Izohli lug'atlarda vulgarizm "adabiy tilda ishlatilmaydigan vulgar so'z yoki ibora" sifatida ta'riflanadi. So'kinish va qo'pol so'zlar gapiruvchining subyektiv munosabatini ifodalashda, uning keskin hissiy kayfiyati bilan bog'liq holda qo'llaniladi. Ammo bunday leksik birliklarning ortiqcha va bemaqsad ishlatilishi nutq madaniyatini buzadi, ijtimoiy muloqot sifatini pasaytiradi.

Shuningdek, adabiy matnlar tahliliga asoslanib tilshunoslar vulgarizmlarning badiiy asarlarda dramatiklik va obraz kuchini oshirish vositasi sifatida qo'llanilishini ta'kidlaydi.(Z.Karimova. 2024.) Biroq u kundalik muloqotda ishlatilganda, tilning go'zalligini buzadi va adabiy nutqqa salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan:

"Mol", "la'nati", "shallaqi", "xaromzoda", "itvachcha", "og'zingdan qoning kelgur", "it emgur", "g'ilay", "soqov", "cho'loqbachcha", "moxov", "zoti past" – kabi shaxsning nafsoniyatiga teguvchi, undagi kamchiliklar yoki nasliyatni kamsituvchi so'zlar.

Badiiy asarlardan misollar:

"Hoy, **juvonmarg zumrasha**, tag'in ko'chagami?"

(G'. G'ulom, *Shum bola*)

"Yolg'on gapirasen, **xunasa**, uyida bo'lmagansan."

(T.Malik *Shaytanat*)

Shuningdek, bu leksik birlikka oid so'zlar vaqtincha hissiy ehtiyojni qondirsa-da, tez-tez qo'llanishi nutqni "qo'pol", "saviyasiz" ko'rsatadi va ijtimoiy muloqotda shaxs obro'siga putur yetkazadi va uning jamiyatdagi o'rni "salbiy" deb bahonaladi. Afsuski, zamonaviy ijtimoiy muhitda nutq madaniyati me'yorlariga rioya etish faqat yoshlar orasida emas, balki kattalar nutqida ham tobora sustlashib bormoqda. Jamiyatning turli qatlamlarida til me'yorlariga nisbatan beparvolikning kuchayishi nutq madaniyatining pasayishiga, adabiy til qadriyatlarining esa keng miqyosda buzilishiga olib kelmoqda

Varvarizm – chet tillardan o'zlashtirilgan, ammo tilimizda to'liq singib ketmagan so'zlar bo'lib, ular ko'pincha ijtimoiy moda yoki odat sababli paydo bo'ladi, bunda insonlar tiliga begona til unsurlari aralashib ketadi. Varvarizmlar adabiy til me'yorlariga xos bo'lmaydi, uni buzadi, ammo kundalik og'zaki va yozma nutqda keng qo'llaniladi. Ulardan foydalanish adabiy nutqni "ifloslantiradi".

Masalan:

"OK", "bye", "sorry", "chat", "trend", "bro" kabi o'zbek tilida muqobili mavjud bo'lgan ko'plab so'zlar inglizchadan, *"давно", "как будто", "обед", "давай", "пока", "нормальный", "лучше"* – kabi so'zlar esa rus tilidan kirib kelgan, ammo o'zbek tilida o'zlashtirilmagan. Ularning chet tillaridan o'zlashtirib olingan, ya'ni o'zbek tilida tarjima qilmasdan foydalaniladigan o'zlashma so'zlardan farqi shundaki, bu so'zlarning o'zbekcha tarjimalari mavjud. Ko'plab tilshunoslar o'tkazgan tajribalarda ko'rinishicha, yoshlar o'rtasidagi suhbatlarning katta foizida o'zlashtirilmagan so'zlardan faol foydalaniladi. Muammo esa, yoshlarimiz o'zlari foydalanadigan varvarizmlarning o'z tilidagi muqobilini bilmasligida, yoki aynan muqobilini qo'yib muloqot qila olmasligida.

Varvarizmlarning tilga kirib kelishining asosiy sabablaridan biri bu ijtimoiy tarmoqlar hisoblanadi. Chunki, zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda "to'g'ri-noto'g'ri"ga ajratilmagan holda (og'zaki-yozma) cheksiz tarzda ma'lumot olish ham, uni boshqalar bilan baham ko'rish, uzatish, ular orqali millionlab insonlar ongiga ta'sir o'tkazish ham mumkin. Insonlar nutqiga ham

yuqoridagidek vositalar shunday yo'l orqali, "himoyasiz panel"dan kirib kelmoqda. Buning oqibatida jamiyatda ko'plab varvarizmlarni anglamaydigan auditoriya uchun shaxsning matni yoki nutqi tushunarsiz bo'lib qolishi, bundan tashqari milliy tilimiz bu kabi vositalar sababli zararlanishi, zaiflashishi va shu bilan bir qatorda jamiyat uchun o'z adabiy tilidan emas, balki boshqa tildan kirib kelgan so'zlardan foydalanish yuqori mavqega ega bo'lib qolishi mumkin. Milliy til ahamiyatini chuqur his qiladigan insonlar esa bu qanchalik global muammo ekanligini juda yaxshi tushunishadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda imlo xatolari va qisqart,alarining nutq madaniyatiga ta'siri

Zamonaviy kommunikatsiya vositalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar nutqining shakllanishida muhim rol o'ynayotgani haqida yuqorida ham aytib o'tdik. Bu jarayonning salbiy tomonlaridan yana biri – bu imlo xatolarining keng tarqalishi va ular asta-sekin til amaliyotida "oddiy hol" sifatida qabul qilinayotganidir. Masalan, so'zlarning fonetik talaffuzga moslab yozilishi, bosh harf va tinish belgilarning muntazam e'tiborsiz qoldirilishi, ayrim so'zlarning atayin qisqartirilishi yoki noodatiy yozma nutqda qo'llash shakllari yoshlar orasida muloqotning asosiy qismiga aylanib bormoqda.

Imlo xatolari va qisqartmalarining buunday keng qo'llanilishi tilning me'yoriy qoidalarini zaiflashtiradi. Dastlab ular faqat norasmiy muloqot doirasida qo'llanilgan bo'lsa, hozirgi kunda ayrim yoshlar rasmiy yozishmalarda ham shunday shakllardan foydalanmoqda. Bu esa adabiy til me'yorlarining funksional uslublari o'rtasidagi chegaralarni buzib, nutq madaniyatida aniqlik, mantiqiylik va uslubiy uyg'unlikni pasaytiradi. Qisqartmalar va yozma nutqdagi deformatsiyalar bir tomondan muloqotning tezkorligini oshirsa-da, boshqa tomondan, fikrning to'liq ifodasini cheklaydi. Ular yoshlarni aniq va puxta yozishga emas, balki qulay va soddalashtirilgan shakllarga o'rgatib qo'yadi. Natijada, yoshlar o'z tillarida qanday to'g'ri yozishni-da unutib borishadi. Bu esa adabiy til me'yorlarining yozma shakli uchun katta xavf tug'diradi.

Misol o'rnida yoshlar o'rtasidagi suhbatlardan namunalar keltirsak:

- **Sz km yaxwi yomonligini blmi qolas**
- **Erte mn bn mkga borasanmi?**
- **Wunaqa bosa kk, domlo jb bermagan shekel**

Bu ijtimoiy tarmoqlardan ayni olingan suhbatlardan hisoblanib, bugungi kunda yuqoridagi kabi imlo xatolarga yo'l qo'yish "sh" o'rniga "w" qo'yib yozish, imlo me'yorlarini dialektizmlar yozilishi bilan alishtirilishi, so'zlarda unli harflarni tushirib qoldirish, so'zlar fonetik talaffuzda qanday aytilsa, grammatik qoidalarga amal qilmasdan shunday yozilishi, bundan tashqari, so'zlarni qisqartirib yozish: "bilan – bn", "kerak – kk", "javob – jb" kabi - bular yozma nutqni buzuvchi va undagi "go'zallik"ni o'g'rilovchi vositalar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda insonni savodsiz ko'rsatadi, ya'ni o'z tilini yaxshi bilmasligidan dalolat beradi. Hozirda xatoliklarga yo'l qo'yib yozish yoshlar orasida ko'proq ommalashgan bo'lsa-da, oldi olinmasa, yaqin kelajakda o'sha yoshlarning avlodlarida ham bu davom etadi, keyinchalik esa ommaviy savodsizlikka sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish kerakki, bu kabi muammolarning oldini olish uchun chora-tadbirlar ko'rilmoqdadir ham, biroq insonlarning aksariyati o'z nutqiga e'tiborli bo'lmas ekan, bu jarayon yana va yana, yillar davomida davom etaveradi. Chunki, yosh avlodning aksariyat qismi o'zidan oldin yashagan avlodning nutq me'yorlarini yoki o'zlari qiziqib kuzatadigan shaxslarning so'zlashish uslubini o'zlariga me'yorlashtirib olishga moyildirlar. Otadan bolaga, rahbarlardan xalqqa, shuningdek, avloddan avlodga bu xato me'yorlar "to'g'risi" sifatida singib boraveradi. Natijada biz tilimizning eng go'zal me'yorlarini yo'qotamiz: turli xil qo'pol so'zlar, o'z tilimizga xos bo'lmagan (varvarizmlar), parazit so'zlar nutqimizda adabiy til me'yorlarimiz bilan uyg'unlashib ketadi. Oqibatda biz tilimizdan, undagi soflikdan ayrilamiz. Abdulla Avloniy aytganlaridek: "Tilsiz millat bo'lmaydi. Millatning tili uning darajasini ko'rsatib beradigan eng katta omillardan biridir." Bunday muammolarni bartaraf etish uchun esa jamiyat va davlat

barobar harakat qilmog'i lozim. Mamlakatimiz rahbarlari ayni yillarda mazkur sohaga yo'naltirilgan islohotlarni keng tatbiq qilmoqda. Xususan, davlatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019- yil 21-oktabrda imzolagan (2023-yil 31-oktabrda yangilangan) "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonini imzoladi va bu jamiyatning ona tiliga bo'lgan e'tiborini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Farmonga binoan, barcha davlat organlari, idoralar, korxona va muassasalarda rasmiy tilde ish yuritishni davlat tilida olib boorish majburiy qilindi. Maktab, kollej va oliygohlarda o'zbek tilini chuqur va sifatli o'qitish bo'yicha yangi dasturlar ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. O'zbek tilining imlo qoidalarini takomillashtirish, zamonaviy izohli lug'atlar, elektron korpus yaratish ishlari boshlandi. Bundan tashqari, ba'zi millatparvar vatandoshlarimiz ham o'zlarining ijtimoiy tarmoqlarida chetdan kirib kelgan, o'zlashtirilmagan so'zlarning asl muqobilini ommaga taqdim etish va adabiy tilimizdagi chet tili unsurlarini kamaytirish doirasidagi tashviqot ishlarini olib bormoqdalar. Xususan, asosiy "trendchilar"ni yoshlar auditoriyasi tashkil qilganligi uchun ular kuzatadigan ko'plab sahifalar shu kabi jarayonlarni, imkon qadar o'z tilimizda so'zlashish va yozishishni shaxsiy sahifalarida namuna qilib keltirsalar, ishonamizki, bu ham yoshlar orasida juda tez tarqaladi va ona tilimiz o'z mavqeyini tiklaydi va yuksaladi. Ona tiliga mehr, so'zga ehtirom va nutqiy madaniyatni shakllantirish — kelajak avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-5850-sonli farmon. Manba:<https://lex.uz/docs/-4561730>
2. Avloniy.A, *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent, 1913.
3. <https://magellans.com> Z.G'.Karimova – "*Lingupoetic features of offensive words in uzbek and English literary texts*"
4. Imlo.uz *Vulgarizm*
5. S.Karimov. *O'zbek tili normalari*. – Toshkent, 2012.